

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TIL O'RGANISHNING QULAY VA SALBIY TARAFLARI

Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi

FarDu: Amaliy ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi, PHD

Mirzohidova Davlatoy Mirzohid qizi

Farg'ona davlat universiteti: ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalar yordamida til o'rganishning qulay va salbiy tomonlari O'zbekiston va jahon mutaxassislari fikri asosida tahlil qilinadi. Raqamli vositalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar va interaktiv multimedialarning til o'zlashtirish jarayonidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim muassasalari va xalqaro tajribadan amaliy misollar keltiriladi. Tadqiqotchilar o'rtasidagi muhokamalar va texnologiyalarning an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirilishi zarurati xususida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются преимущества и недостатки изучения иностранных языков с использованием современных технологий на основе мнений узбекских и зарубежных специалистов. Анализируется роль цифровых инструментов, мобильных приложений, онлайн-платформ и интерактивных мультимедийных средств в процессе овладения языком. Приводятся практические примеры из образовательных учреждений Узбекистана и международного опыта. Особое внимание уделяется научным дискуссиям между исследователями и необходимости интеграции технологий с традиционными методами преподавания. В завершение предлагаются рекомендации по совершенствованию системы преподавания иностранных языков в Узбекистане.

Abstract. This article analyzes the advantages and disadvantages of language learning through modern technologies based on the views of Uzbek and international experts. The role of digital tools, mobile applications, online platforms, and interactive multimedia in the language acquisition process is examined. Debates among researchers and the necessity of integrating technologies with traditional methods are emphasized.

Kalit so'zlar: Til o'rganish, zamonaviy texnologiyalar, raqamli vositalar, mobil ilovalar, interaktiv platformalar, o'zbek mutaxassislari, xalqaro mutaxassislar, aralash ta'lim, til o'zlashtirish, kommunikativ kompetensiya.

Ключевые слова: Изучение языков, современные технологии, цифровые инструменты, мобильные приложения, интерактивные платформы, узбекские специалисты, зарубежные эксперты, смешанное обучение, овладение языком, коммуникативная компетенция.

Key words: Language learning, modern technologies, digital tools, mobile applications, interactive platforms, Uzbek specialists, international experts, blended learning, language acquisition, communicative competence

Kirish

So'nggi o'n yillikda zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonlarida tub burilish yasadi. Ayniqsa, til o'rganishda raqamli platformalar, mobil ilovalar va onlayn resurslar keng qo'llanilmoqda. Bu holat nafaqat o'zbek tilshunoslari, balki chet ellik ekspertlar tomonidan ham jiddiy o'rganilayotgani sir emas. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning til o'rganishga ta'siri, uning qulay va salbiy tomonlari O'zbekiston va jahon tajribasi asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Yo'ldosheva (2025) va Samadova & Allayarova (2025) shuni ta'kidlaydiki, texnologiyalar o'quvchilarga individual tempda, qulay va istalgan joyda o'rganish imkonini beradi. Ular interaktivlik, multimedia va real vaqtli fikr-mulohazalar yordamida o'rganish jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, mobil ilovalar va onlayn platformalar til o'rganishni mustaqil va samarali bo'lishiga ulkan hissa qo'shadi. AQShlik tilshunos Stephen Krashen texnologiyalarni "comprehensible input" manbai sifatida baholaydi, ya'ni ular til o'rganishda tushunarli kirishlarni ta'minlaydi va shu orqali til o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Mark Warschauer esa multimediya va interaktivlik til o'rganishning kontekstga bog'liq, madaniyatlararo komponentlarini rivojlantirishda muhim ekanini ta'kidlaydi. Michele Knapp esa o'z vaqtida fikr-mulohaza olish imkoniyati va shaxsiylashtirilgan o'quv rejalarining motivatsiyani oshirishdagi rolini alohida ko'rsatib beradi.

Natijalar

Shu o'rinda, Filimonova (2022) texnologiyalarning til o'rganishdagi ijtimoiy-kommunikativ imkoniyatlarni to'liq qamrab ololmasligini ta'kidlashi diqqatni tortishi tabiiy. Unga ko'ra, texnologiyaga haddan tashqari tayanish real muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, Samadova & Allayarova mobil ilovalar nutq ko'nikmalarini shakllantirishda yetishmovchilik va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkinligini aytib o'tadi. Yuqoridagi fikrlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanini bilish maqsadida quyida O'zbek va chet el davlatlari o'quv dasturida texnologiyalar o'rnini ko'rib chiqish samarali bo'ladi. Xususan O'zbekistonda "Til O'rganishda Interaktiv Platformalar" loyihasi (Toshkent davlat til va adabiyot universiteti) amalda. Bu loyiha doirasida talabalar "Duolingo", "Quizlet" kabi ilovalar orqali ingliz va fransuz tillarini mustaqil o'rganmoqda. O'qituvchilar real vaqt rejimida baholash va fikr bildirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga onlayn darslar va video konferensiyalar ham tashkillanyotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Misol uchun: COVID-19 pandemiyasi davrida ko'plab o'zbekistonlik o'quvchilar va talabalar Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar yordamida chet tillarini o'rganish jarayonini davom ettirdi. Bu jarayon interaktivlik va vaqtning moslashuvchanligini ta'minladi. Bundan tashqari mobil ilovalar orqali o'rganish ham allaqachon amalda. "LinguaLeo" va "Busuu" kabi mobil ilovalar o'zbekistonlik yoshlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ular til o'rganishni ko'ngilochar va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida zamonaviy texnologiyalarning ushbu sohadagi o'rne ham juda katta hisoblanadi. AQSh va Buyuk Britaniyada ko'plab universitetlar til o'rgatishda "Blended learning" usulidan

foydalanmoqda, bu usul an'anaviy darslarni onlayn resurslar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga ko'proq individual yondashuv imkonini bermogda. Yaponiyada "AI-tutor" tizimlari yordamida til o'rganishda individual ehtiyojlarga moslashtirilgan mashg'ulotlar olib borilayotgani fikrimning yaqqol misoli bo'la oladi.

Muhokama

Chet el mutaxassislarining bu bo'yicha fikrlari esa quyidagicha, Krashen texnologiyalarni asosiy o'rgatuvchi vosita sifatida emas, balki yordamchi vosita sifatida ko'rishni tavsiya qiladi. Warschauer esa texnologiyalardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarning yuqori malakasi va tayyorgarligi zarurligiga urg'u beradi. Knapp esa texnik muammolar va raqamli savodxonlik darajasining farqliligi ba'zan o'rganish jarayonini qiyinlashtirishi mumkinligini bildiradi. Jahonda texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj yuqorilagani sari, mutaxassislar o'rtasida muhokamali vaziyatlar soni ham oshib bormogda. Aynan til o'rganishda texnologiyalarning roli to'g'risidagi muhokamalar jiddiy tus olgan. Ba'zi mutaxassislar texnologiyani qo'shimcha, yordamchi vosita sifatida ko'rsatsa, boshqalar uni o'rganish jarayonining markaziga qo'yish mumkin deb hisoblaydi. O'zbekistonlik mutaxassislar esa texnologiyalarni an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, barcha tadqiqotchilar haqiqiy inson bilan muloqot (face-to-face yoki onlayn) til o'rganish samaradorligi uchun muhim ekanini e'tirof etadi. Bu nuqtai nazar til o'rganish jarayonidagi madaniy kontekst va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muhimdir.

Xulosa

Zamonaviy texnologiyalar til o'rganishni an'anaviy metodlardan ancha samaraliroq va qiziqarli qilayotgani ma'lum. Biroq, texnologiyalardan foydalanganda real muloqot imkoniyatlari, o'qituvchilarning malakasi va o'quvchilarning motivatsiyasi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'zbekistonda bu sohada texnologiyalarni joriy etishda texnologiyalarni an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, talabalarga interaktiv va madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini yaratish lozim. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o'rganib, texnologiyalarni mamlakatimiz sharoitlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Filimonova, N. (2022). Computer-Aided Language Learning Challenges: Pros and Cons. WOS Academic Science.
2. Yo'ldosheva, M. (2025). Modern Technologies in Language Education: Advantages and Disadvantages. Scientific Journal of Language and Literature.
3. Samadova, G., & Allayarova, S. (2025). Advantages and Disadvantages of Learning Foreign Languages Through Mobile Applications. Universal Conference Proceedings.
4. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

5. Warschauer, M. (1996). Computer Assisted Language Learning: An Introduction. Cambridge University Press.
6. Knapp, M. (2020). Digital Language Learning: Opportunities and Challenges. Routledge.
7. Chapelle, C. A. (2001). Computer Applications in Second Language Acquisition. Cambridge University Press.

